



## BADIIY ADABIYOTDA BAXT TUSHUNCHASI

Jalolova Shalolaxon Islomjon qizi

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani 20-maktab o'qituvchisi erkin tadqiqotchi,

**Annotatsiya:** Maqolada baxt tushunchasi falsafiy-axloqiy, adabiy-estetik kategoriya sifatida tadqiq etilgan. Xalq maqollari va o'zbek she'riyatidagi baxt talqinlari qiyosan o'rganilgan. Xususan, Shavkat Rahmon she'riyatida baxt konsepsiyasi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** konsepsiya, abadiy mavzular, lirik qahramon, shoir “men”i, maqollar, didaktik funksiya.

**Abstract:** In the article, the concept of happiness is researched as a philosophical-ethical, literary-aesthetic category. Interpretations of happiness in folk proverbs and Uzbek poetry have been comparatively studied. In particular, the concept of happiness is analyzed in Shavkat Rahman's poetry.

**Key words:** conception, literary themes, lyrical hero, identity of poet, proverbs, didactic function.

Baxt butun dunyoni harakatga keltiruvchi, insoniyat hayotining mazmundorligini belgilovchi asosiy kuchdir. Borliqdagi barcha xatti-harakatlar, barcha tushunchalar, qarashlar baxt va baxtsizlik atrofida aylanadi, yashaydi. Bu dunyoga kelish-ketish safarining javhari ham bir marotaba beriladigan umrni taqdirdan rozilikda, mamnunlikda o'tkazishdadir. Aslida butun olam BAXT konsepsiyasining asosiga qurilgan. Faqat baxt haqidagi tushunchalar, qarashlar uni his qiluvchining dunyoqarashi, saviyasi, qiziqishlari, mentaliteti, kasb-kori, yoshi, umuman, hissiy-ruhiy, iqtisodiy-ma'naviy ehtiyojlari nuqtayi nazaridan farqlanadi.

Adabiyot ijtimoiy hayotning in'ikosidir. Unda insoniyatning turmush tarzi, hayoti, o'y va qarashlari, hissiy kechinmalari o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, butun insonlarning asosiy maqsadi va muhim ruhiy-hissiy ehtiyoji bo'lgan baxt tushunchasi badiiy adabiyotlarda turli badiiy tasvir usullari asosida rang-barang aks ettirilgan. Ularni tadqiq etish qiziq va muhim xulosalar beradi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da baxt so'zi forsha, taqdir, nasiba, ulush ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan. “1. Kishining o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidining ushalishi sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy tushuncha. 2. Hayot, turmushdan to'la mamnunlik, beramonlik holati”[1.314].

Baxt konsepti ma'naviy-axloqiy tushuncha va shu bilan birgalikda falsafiy kategoriya ham. Baxt tushunchasi nisbiylik nazariyasi bilan baholanadi. Chunki baxt qaysi rakursdan qaralishi, qaysi mezonlar asosida baho berilishi, baho beruvchi subyektning dunyoqarashi kabi qator omillar asosida turlanib, yangi mazmun kasb etib boradi.

Baxt mavzusi adabiyotda ko'hna va abadiy mavzulardan biridir. Bu mavzuda xalq og'zaki ijodi namunalarida yetarlicha badiiy talqinlarni uchratish mumkin. Xalq maqol va matalllarida ham baxt va unga munosabat masalasi aks etib turadi. Masalan, “Mehnat – baxt keltirar”. Xalq og'zaki ijodi namunalarida mehnat, mehnatsevarlik ulug'lanib keladi.



Har bir baxtiyorlik ortida xalol mehnat, yaratuvchanlik yotishi bot-bot ta'kidlanadi. Maqollarning mazmunida didaktik mohiyat ustuvorlik qilishi ayon. Har bir mashaqqatli mehnatning ortida go'zal natija, asosiysi, mehnat qiluvchining ruhiy-hissiy qoniqishi, o'ziga nisbatan ishonchining ortishi kabi omillar turadi. Bu esa insonni borliqqa teran va ezgulik ko'zi bilan boqishga o'rgatadi. Hayotimiz asli harakat, yaratuvchanlik orqali keladigan baxtning asosiga qurilgan.

“Xotin baxti erda bo'lar, yetim baxti yerda bo'lar”[2.] maqolida sharqona islomiy qadriyatlar, qarashlar bo'y ko'rsatadi. Oilada er va xotin bir-birining baxti, omadi. Bu borada tanlov omadli bo'lsa, yutuq. Ammo tanlovdagi xatolikning to'lovi bir umrlik bo'ladi. Sharqona qadriyatlarimizga ko'ra, erkak oilaning ustuni, oiladagi xotirjamlik, barakaning garovi, baxtning kaliti unda bo'ladi. Shu ma'noda erkak xotinning baxtidir. Yetimlarning haqi, ularga e'tibor ko'rsatish haqida chiroyli islomiy qadriyatlarimiz, qarashlarimiz bor. Yaratgan hamisha mazlumlar, o'jizlar, yetimlar tomonida ekanligi ko'p bor ta'kidlangan muqaddas manbalarni nazarda tutsak, yetimlar uchun tasodifiy omad, baxtning kelishi Haqdandir.

“Kal qizning baxtini ko'r – o'tirgan taxtini ko'r” yoki shunga ma'nodosh “Baxt kimniki? Sochi pahmoq, qo'li to'qmoqniki” kabi maqollarda esa ko'p yillik kuzatishlar asosida ta'kidlangan amallar, pand-nasihatlariga mutanosib bo'lmagan vaziyatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Yozma adabiyotda ham, xususan, she'riyatda baxt konseptiga ko'p bor murojaat qilingan va ulardagi talqinlar rang-barangligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Shavkat Rahmonning “Baxt so'zi” she'rida elga buyuk muhabbati bor shoirning dil izhorlari aks etgan:

Baxtiyorman degan birgina so'zni  
aytish uchun kerak qancha kuch-chidam,  
garchi baxt so'zlarning eng yoqimligi,  
garchi tursa hamki, tilning uchida.  
Og'ir botmasmikan  
bu so'z kimgadir,  
tegib ketmasmikan oh-vohlariga,  
qandoq bardosh berib yashayman keyin  
baxtsiz kimsalarning nigohlariga.

Erkin she'r imkoniyatlari doirasida baxt konsepti tavsiflanadi. Bu tavsifda baxt va baxtiyorlik ifodasi mamnunlik, taqdirdan rizolikdan ko'ra dard, achinish, andisha, el dardiga qayg'urish tuyg'ulari ustuvorlik qiladi. Unda fidoyi insonning, qalbi elga muhabbat bilan to'lug' shoirning baxt haqidagi tasavvurlari aks etadi. Baxt so'zi juda yoqimli, ammo uni aytish, “baxtliman”, deya mamnuniyat his qilishning ortida ham mas'uliyat yotganligiga e'tibor qaratiladi. Inson hech qachon bir o'zi baxtli bo'la olmaydi, bu baxt unga tatimaydi. Shoirning baxti esa xalqining baxtidan o'sib chiqadi. Buni his qilish chin ijodkorlargagina nasib bo'ladigan toledir. Shavkat Rahmon shu ma'noda o'z elining jonkuyar, fidoyi farzandi edi.



Avvalo, bu soʻzni oʻzgaralar aytsin,  
aytsinlar koʻzlari quvonchga toʻlib.  
Elning baxti uchun umrini tikkan  
shoirilar aytmasin birinchi boʻlib.  
Bu soʻzni bir umr aytmay yashadim,  
har shodlik kelganda yurdim sekinroq.  
Gʻam soʻzin elimdan avvalroq aytdim,  
Baxt soʻzin aytaman  
Eldan keyinroq.

Lirik qahramonning nazdida chin baxt – elning baxti. Elning dardi bilan yashayotgan ijodkor esa baxtiyor insondir. Chunki uning qalbida buyuk muhabbat bor va bu yoʻlda u borini baxshida qilib yashaydi. “Boʻronlarda bordek halovat” deganlaridek, oʻzini mana shunday bagʻishlovida shoir oʻz baxtini koʻradi. Lirik qahramon nazdidagi baxtda oliy maqsad – el koriga yarash va bu yoʻldagi fidoyilik hayot-mamot masalasi kabi muhim oʻrin tutadi. Ijodkor xalqi aslida qiynoqdan rohat, mashaqqatdan baxt, fidoyilikdan masrurlik, darddan yengillik tuygan ajoyib xalq. Ularning baxt konsepti paradoks, xiazmlarga toʻla.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, xalq maqollarida baxt konsepti falsafadagi dualistika nazariyasiga muvofiq tarzda talqin etiladi. Ularda baxtning anglanishi haqidagi tasavvurlar didakti mohiyat bilan yoʻgʻrilgan. Oʻzbek sheʼriyatda ham baxt konsepsiyasi serqirra aks etgan. Bu talqinlarda ijodkorning baxt haqidagi subyektiv qarashlari uygʻunlashib ketadi. Ularda lirik kechinma murakkab va turfa xil ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi matbaa-ijodiy uyi. 2023.
2. Oʻzbek xalq maqollari.
3. Шавкат Раҳмон. Сайланма. Тошкент: Sharq, 1997.
4. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
5. Mukhammadjonova Guzalkhan. Artistic interpretation of Ahmad Yassaviy image.// ERPA International Journal of Multidisciplinary research (IJMR), Volume 10 Issue 04, 2021.
6. Mukhammadjonova Guzalkhan. Psychological analysis from portrait.// Current research journal of philological sciences. Volume 02 Issue 05, 2021.
7. Mukhammadjonova Guzalkhan. Problems of creative human concept and artical interpretation.// The American jurnal of social science and education innovations. Volume 3 Issue 11, 2021.
8. Mukhammadjonova Guzalkhan. Artistic interpretation of the creative concept in world literature// Actual problems of classical and modern uzbek literature. Collection of materials of the international online conference. T., 2020. P. 228-233.



9. Mukhammadjonova Guzalkhan. He artist’s image – landscape – literary synthesis// Models and methods in modern science. France. 12. 01.2022. P.46-48.
10. Mukhammadjonova Guzalkhan. Artistic interpretation of the creative concept in world literature.// Scientific-theoretical conference. Germany, 2020.